

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XATAMJONOVA GULSANAM YASHARJON QIZI

**XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ERK MUXTORIYATI
(PARTY AUTONOMY) PRINSIPI VA UNING CHEKLOVCHI
XUSUSIYATLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Xatamjonova Gulsanam Yasharjon qizi

Xalqaro xususiy huquqda erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipi va uning cheklovchi xususiyatlari..... 21

Xatamjonova Gulsanam Yasharjon kizi

Принцип автономии сторон в международном частном праве и его ограничительные черты.....38

Xatamjonova Gulsanam Yasharjon kizi

The principle of party autonomy in private international law and its restrictive features47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications 42

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12. 2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XATAMJONOVA GULSANAM YASHARJON QIZI

**XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ERK MUXTORIYATI (PARTY
AUTONOMY) PRINSIPI VA UNING CHEKLOVCHI
XUSUSIYATLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu872 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rashidov Komil Kayumovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Musayev Bekzod Tursunboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Jo‘ldasova Sohibjamol Jalgasovna
yuridik fanlar doktori

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy
Kengashi huzuridagi Odil sudlov akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSs.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 19-dekabr kuni soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1327-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 4-dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 4-dekabdagi 99-son reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy dunyoda globallashuv va xalqaro savdoning kengayishi sharoitida erk muxtoriyati prinsipi tomonlarga o'z manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi maqbul tartibga solish imkonini yaratadi. Ushbu konseptsiya – erk muxtoriyati prinsipi o'z dolzarbligini yo'qotmagan holda bir necha yuz yillar davomida ishlab chiqilgan va doimiy ravishda yangilanib kelgan. Bunobarin, xalqaro xususiy-huquqiy munosabatlarning muayyan sohalarini tartibga solishda nodavlat tartibini ham tanlash huquqi milliy va xalqaro hujjatlarda o'z aksini topmoqda. Mazkur jarayonda erk muxtoriyati prinsipi kollizion huquqning asosiy tamoyili sifatida tobora kengroq e'tirof etilmoqda.

Xususan, Yevropa Ittifoqi (EU), Xitoy [Laws Applicable to Foreign-Related Civil Relations 43-44], Rossiya [Russian Civil Code, 1212], Germaniya [EGBGB 29-30], Turkiya [Turkish PIL Code, 26-27], Ruminiya [Romanian PIL Act, 101-102], va Yaponiya [Japanese PIL Act, 11-12] xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchiligida erk muxtoriyati prinsipining e'tirof etilishi bunga misol bo'la oladi. Odat huquqi mamlakatlari hisoblanuvchi Buyuk Britaniya (UK) [English Arbitration Act], Kanada [Canadian Commercial Arbitration], Hindiston [Indian Arbitration Act] va Janubiy Afrika Respublikalarida [Southern Arbitration Act] ham tashqi iqtisodiy bitimlarda taraflarga avtonom huquqlar taqdim etuvchi prinsip sifatida tan olingan. Mazkur tamoyil xalqaro xususiy huquqiy munosabat ishtirokchilariga o'zaro huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha huquq va majburiyatlarni tartibga soluvchi huquqiy tizimni erkin tanlash huquqini beradi.

Jahonda erk muxtoriyati prinsipini odatiy mamlakat ommaviy manfaatlaridan kelib chiqib tushunish (State-sovereignist perspective) dan taraflarning manfaatlariga asoslanib tushunish (Party-sovereignist) ham rivojlanib bormoqda. Mamlakatlar qonunchiligi tomonidan taraflarning huquq tanlovidagi ayrim cheklolarning qisqarishi, xususan taraflar va ularning nizolari hamda ular tanlagan huquq o'rtasida bog'liqlik (reasonable connection) mavjud bo'lishi lozimligi talabi, shuningdek taraflar ularning nizolari uchun qo'llaniladigan huquq sifatida mamlakat huquqi sanalmaydigan huquq (non-state laws) dan foydalanish imkoniyati mavjudligi erk muxtoriyati prinsipining mamlakat qonunchiligiga "qaramligi"ni kamaytiradi. Taraflar tomonidan mamlakat huquqi sanalmaydigan huquq (non-state laws) ni shartnoma uchun tanlay olish taraflarning irodasi endilikda huquqiy munosabatni biror bir huquqiy tizimga bog'lovchi omil sifatida emas, balki nodavlat normalarni "qo'llaniladigan" huquqqa aylantiruvchi asos sifatida qaraladi. Shuningdek iqtisodiy nuqtayi nazardan huquqiy munosabatlarda "zaif" taraf huquqlarini himoya qilish tamoyilini rivojlantirilishi (special protections for weaker parties) va shu tamoyil asosida munosabatlarning hal etilishi ham erk muxtoriyati prinsipining zamonaviy aks ettirilishidir. Shu o'rinda Dj. Bill Garvard universiteti proessori, "Birinchi nizo (konflikt) huquqi Yig'ni" muallifining fikri o'rinli: "huquqiy munosabatlarga nisbatan huquqni tanlash - huquqning funksiyasidir va taraflarga qo'llaniladigan huquqni tanlash huquqini

taqdim etish vakolatini berish, demak ularni qonunchilik funksiyasi bilan ta'minlashni anglatadi"¹.

Xalqaro xususiy huquqda taraflar irodasi muxtoriyati, shuningdek uni qo'llash sabablari va cheklovlari masalasi chet el fuqarolari yoki chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi yoxud chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda (ayniqsa tashqi iqtisodiy shartnomalarga) qo'llanishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasida erk muxtoriyati qoidasi 1997-yilda kuchga kirgan Fuqarolik kodeksining 1189-moddasida belgilangani tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga huquqiy zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining, xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday mulkiy harakterdagi munosabat yoxud huquqiy nizolarni hisobga olsak nizolarni sudlarda hal etish ancha mushkul vazifaga aylanib qoladi. Shu boisdan, ushbu taraflarga o'z erklari asosida xalqaro tijorat shartnomalar tuzish, shartnomada taraflar huquqlari va majburiyatlari hamda eng asosiysi nizolar uchun qo'llaniladigan huquqni tanlash imkoniyatini aniq va ravshan belgilash eng to'g'ri yo'ldir. Xususan XXI asrda xalqaro iqtisodiy maydonda chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda yangi bosqich "aqlli" xalqaro xususiy-huquqiy shartnomalarning qo'llanilishi doirasi kengayishi reallikka aylandi, xalqaro elektron savdo munosabatlariga raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Bunda elektron tijorat shartnomalari o'z qo'li bilan imzolangan hujjatlarga tenglashtirildi. Bu kabi "aqlli" shartnomalar xalqaro iqtisodiy maydonda asrimizning yangi bosqichini boshlab berdi va yangi xalqaro xususiy huquqiy masalalarni-raqamli huquq doirasida erk muxtoriyati qoidasini adashmay va tartibli qo'llash tegrasini aniqlashni taqoza qilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi uchun kengroq shart-sharoitlar yaratish faoliyati davom etmoqda, shu bois O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida fuqarolik qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va unifikatsiya qilish, ularni eng namunali xorijiy amaliyotlar bilan uyg'unligini ta'minlash, shuningdek, ushbu sohada ilg'or xalqaro standartlarni implementatsiya qilish vazifasi naqadar dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, mamlakatimizda raqamli texnologiya bilan bog'liq munosabatlarni rivojlantirish va ularni tartibga solish yuzasidan davlat miqyosida tegishli chora-tadbirlar ko'rilib qonunchilik hujjatlari qabul qilinib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni hamda 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" PQ-

¹ Beale, J. H. A treatise on the conflict of laws / J. H. Beale [Electronic resource] // Constitution Society. — Mode of access: http://www.constitution.org/cmt/jhb/conflict_laws.htm. — Date of access: 19.11.2013.

358-son Qarorini keltirishimiz mumkin.

Kelgusida xalqaro savdo munosabatlarning yanada rivojlanishi, kutilmagan oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan holatlarni hisobga oladigan bo'lsak, xalqaro iqtisodiy va savdo munosabatlarning boshqa sohalarida ham erk muxtoriyati prinsipidan tartibli foydalanish imkoniyatlarini topishimiz yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar uchun munosib yechim bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Erk muxtoriyati prinsipi va erk muxtoriyati prinsipining shartnomaviy munosabatlarda qo'llanilishi masalalari X.A.Rahmonqulov, K.Q.Rashidov, S.Gulyamov, I.Rustambekov, B.B.Samarxodjayev, B.Y.Ergashev, O.Xazratqulov, N.Rahmonqulovalar tomonidan o'rganilgan.

Erk muxtoriyati prinsipining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyoti, prinsipni cheklovchi omillar va mamlakatlarning ommaviy tartibi taraflarning erk muxtoriyatiga ta'sir etishi sohasida xorijlik tadqiqotchi olimlar –F.Bauer, M. Petit J.R., H.Liang, Y.Zhoa, M.Zhaouhua, E.Friedler, B.Berger, J.Savage, J.Delvolve, G.Pointon, J.Rouche, M.Reimman, L.David, H.Gharavi, P.Sanders, S.Sterk, H. Noan, A.Kassis, Rowe V.Williams va boshqa bir qator olimlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Erk muxtoriyati prinsipi asosida taraflarning kelishuv asosida huquqni tanlash masalalari, taraflarning shartnomaviy munosabatlari uchun mamlakat huquqi sanalmaydigan huquqni tanlash imkoniyatining mavjudligi va erk muxtoriyati prinsipining xalqaro xususiy huquqda yangidan paydo bo'layotgan "aqlli" shartnomalarda qo'llanilishiga doir masalalar Symeon C. Symenoids, Zheng Sofia Tang, Dr. Giesele Ruhl, Alexander Svallyevlar tomonidan o'rganilgan.

Erk muxtoriyati prinsipining nisbatan "yangi shartnomaviy munosabatlar" deb hisoblanadigan, ya'ni shartnomalarning yangi turi deb baholanuvchi "aqlli" shartnomalar yuzasidan tadqiqotlar ham nemis olimasi Dr. Giesele Ruhl, Simeona Kostova va serbiyalik mutaxassis Alexander Svallyevlar tomonidan olib borildi.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash asridagi "yangi tashqi iqtisodiy shartnomalar" doirasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga oid ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari keng doirada olib borilmaganligi e'tiborga loyiq.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarda erk muxtoriyati prinsipining ahamiyatini yanada mustahkamlash va "aqlli" shartnomalar sohasida ushbu prinsipning o'ziga xos yo'nalishini tartibga solishga mo'ljallangan mazkur tadqiqot Toshkent davlat yuridik universitetining huquqiy asoslarni rivojlantirish va raqamli iqtisodiyot xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarni barqarorlashtirishga bag'ishlangan tadqiqot rejalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarda erk muxtoriyati prinsipini belgilash va erk muxtoriyati prinsipini chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan cheklovchi omillarining aniq chegarasini ilmiy tavsif berish orqali ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xalqaro xususiy huquqda erk muxtoriyati prinsipining tarixiy tarkib topishi, rivojlanishi va ushbu prinsipning bugungi kunda qo'llanilish darajasini qiyosiy tahlil asosida o'rganish;

chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan huquqni erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipi doirasida taraflarning huquqni tanlashdagi erkinligini tahlil etish;

xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarda erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipining xalqaro tijorat arbitraji qonunchiligi tizimida o'rnini aniqlash;

chet el fuqarolari yoki chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi arbitraj kelishuvlarining mohiyati, maqsadi, vazifalari va taraflarning arbitraj kelishuvini tuzishdagi erkinligini xalqaro xususiy huquqiy qonunchilik asoslarini tahlil etish;

chet el fuqarolari yoki chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi arbitraj jarayonlarini tashkil etish orqali hal etilishi mumkin bo'lgan holatlarning (arbitrability) umumiy tahlilini amalga oshirish;

xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarda erk muxtoriyati prinsipini qo'llanishining cheklovchi qoidalarini o'rganish;

xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarda erk muxtoriyati prinsipini cheklovchi qoidalari eng avvalo, ijtimoiy axloq, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda ommaviy tartibini ta'minlash maqsadida cheklash ta'sirini baholash;

chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq erk muxtoriyati prinsipi asosida taraflar uchun avtonom huquqlarining to'la kafolati bo'la olish yoki bo'la olmaslik masalasining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasida xalqaro tijorat arbitrajini rivojlantirish istiqbollari qoidalariga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti xalqaro xususiy huquqda taraflar erki irodasi muxtoriyati, shuningdek uning cheklovlarini qo'llash sabablari bilan bogliq ijtimoiy munosabatlardir.

Tadqiqotning predmetini xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarda erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipi va uning cheklanishini tartibga solishga oid nazariy-huquqiy yondashuvlar va konsepsiyalar; milliy va xorijiy mamlakatlar xalqaro xususiy huquqqa doir qonunchiligi hamda tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-nazariy adabiyotlar va amaliyot, sud va hakamlik qarorlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda umumlashtirish, induksiya, deduksiya, tizimli yondoshuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, aniqlashtirish, statistika va amaliyot materiallarini o'rganish kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalqaro tijorat arbitrajiga taraflarning kelishuviga binoan tijorat xususiyatiga

ega bo'lgan ham shartnomaviy, ham shartnomadan tashqari barcha munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar berilishi mumkinligi asoslab berilgan;

arbitraj kelishuvi shartnomaning arbitraj sharti yoki alohida kelishuv tarzida tuzilishi mumkinligi asoslari aniqlab berilgan;

tafirlar arbitraj sudi tomonidan muhokamaning yuritilishi tartib-taomili to'g'risida o'z xohishiga ko'ra kelishib olishi mumkinligi asoslab berilgan;

tafirlar arbitraj muhokamasida foydalaniladigan til yoki tillar to'g'risida o'z xohishlariga ko'ra kelishib olishi, bunday kelishuv mavjud bo'lmaganda, muhokamada qo'llanilishi kerak bo'lgan tilni yoki tillarni arbitraj sudi belgilashi asoslantirib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xalqaro xususiy huquqda erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipi va uning cheklovchi xususiyatlari bo'yicha tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar asosida:

Erk muxtroiyati prinsipi xalqaro xususiy huquqning markaziy prinsipi sifatida Fuqarolik kodeksining umumiy qismida alohida moddasi sifatida kiritilishi lozimligi asoslab berildi;

Fuqarolik kodeksining 1164-moddasi ommaviy tartib to'g'risidagi izohning huquqiy ta'rifi bilan to'ldirilishi lozimligi asoslab berildi;

“Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida”gi Qonunning 4-moddasi xalqaro tijorat arbitrajiga tafirlarning kelishuviga binoan tijorat xususiyatiga ega bo'lgan ham shartnomaviy, ham shartnomadan tashqari barcha munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar berilishi mumkinligi asoslab berilgan asoslab berildi;

“Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida”gi Qonunning 12-moddasi arbitrajga taalluqlik to'g'risidagi tushuncha bilan to'ldirilishi zaruriyati asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, milliy va xalqaro normativ huquqiy hujjatlar va dasturlar, shuningdek milliy va xorijiy taniqli olimlar va tadqiqotchilarning maqolalari, tadqiqotlaridan foydalanish, erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipi va uning cheklovchi xususiyatlari xalqaro xususiy huquqdagi zamonaviy tendensiyalardagi o'rnini o'rganishda izchil va takrorlanadigan natijalar, aniqlangan tamoyillar va tekshirilgan ma'lumotlarga bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosa va takliflardan “erk muxtoriyati” prinsipi va uning cheklovchi xususiyatlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishda, shuningdek “Xalqaro xususiy huquq”, “Xalqaro tijorat arbitraji”, “Fuqarolik huquqi” kabi yuridik fanlarni o'qitish va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish va bo'shliqlarni to'ldirish bilan ushbu sohadagi hujjatlarni boyitadi.

Amaliy jihatdan u xalqaro tijorat shartnomasi tafirlarning shartnomalari va “aqlli” shartnomalari uchun prinsipni qo'llashda samarali huquqiy yechim va texnologik chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha amaliy tushunchalarni taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro xususiy huquqda erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipi va uning cheklovchi xususiyatlari bo'yicha

tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar asosida:

xalqaro tijorat arbitrajiga taraflarning kelishuviga binoan tijorat xususiyatiga ega bo'lgan ham shartnomaviy, ham shartnomadan tashqari barcha munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar berilishi mumkinligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonunning 4-moddasi ikkinchi xatboshisida aks etgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 20-fevraldagi 2-son dalolatnomasi). Mazkur taklif xalqaro tijorat arbitrajiga tegishli bo'lgan nizolar doirasini aniqlashga yordam bergan;

arbitraj kelishuvi shartnomaning arbitraj sharti yoki alohida kelishuv tarzida tuzilishiga doir taklif O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonunning 12-moddasi birinchi xatboshisida aks etgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 20-fevraldagi 2-son dalolatnomasi). Mazkur taklif taraflarda arbitraj kelishuvi tuzish erkinligini kengaytirishga xizmat qilgan;

taraflar arbitraj sudi tomonidan muhokamaning yuritilishi tartib-taomili to'g'risida o'z xohishiga ko'ra kelishib olishi mumkinligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonunning 34-moddasi birinchi xatboshisida aks etgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 20-fevraldagi 2-son dalolatnomasi). Mazkur taklif xalqaro tijorat arbitrajiga tegishli tartib-taomil qoidalarini taraflar tomonidan aniqlashtirish imkoniyatini bergan;

taraflar arbitraj muhokamasida foydalaniladigan til yoki tillar to'g'risida o'z xohishlariga ko'ra kelishib olishi, bunday kelishuv mavjud bo'lmaganda, muhokamada qo'llanilishi kerak bo'lgan tilni yoki tillarni arbitraj sudi belgilashiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonunning 36-moddasi birinchi xatboshisida aks etgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 20-fevraldagi 2-son dalolatnomasi). Mazkur taklif arbitraj muhokamasida qo'llaniladigan til taraflar tomonidan kelishuv asosida tanlash mumkinligiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 1 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 3 ta maqola, 5 tasi xorijiy nashrlardagi maqola va 2 tasi xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 127 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashqari) tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning eʼlon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida maʼlumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipining xalqaro xususiy huquqdagi ahamiyatining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida erk muxtoriyati prinsipining tarixan tarkib topishi, rivojlanishi va turli mamlakatlar qonunchiligida aks ettirilishi, erk muxtoriyati prinsipining xalqaro tijorat arbitrajidagi ahamiyati va ifodasi hamda erk muxtoriyati prinsipini cheklovchi xususiyatlari tahlil qilingan. Erk muxtoriyati prinsipi lugʻaviy jihatdan tahlil qilinib uning asosini taraflarning erk-irodasi tashkil etilishi toʻxtamiga kelingan. Prinsipning dastlabki qadimiy ildizi Qadimgi Misr qonunchiligiga borib taqalishi, keyinchalik esa Qadimgi Rimda Rim fuqarolarining oʻzlari amal qiladigan huquqni tanlab olishi mumkinligi konsepsiyasining vujudga kelib rivojlanishiga olib kelganligi tadqiq etilgan. Prinsipning keyingi rivojiga fransuz huquqshunosi Sharl Dyumulyen hissa qoʻshganligi hamda u tomonidan ilgari surilgan fikr bugungi kunga qadar biz tushunadigan erk muxtoriyatining asosi ekanligi qayd etiladi. Erk muxtoriyati prinsipi niderland huquqshunosi Huber tomonidan, nemis huquqshunosi Savigny tomonidan, esa italyan olimi Mancini tomonidan tadqiq qilinganligi lekin ushbu olimlarning barchasi erk muxtoriyatini hududiy faktorlar bilan bogʻlaganligi hamda ayrim oʻrinlarda shartnoma erkinligi prinsipi bilan bir xil tarzda tushunganliklari xulosasiga kelinadi. XX asrga kelib nemis huquqshunosi Vilgelm Haudek erk muxtoriyati prinsipini shartnoma erkinligi prinsipidan mustaqil boshqa prinsip ekanligi hamda prinsipning asosini taraflarning irodasi tashkil etilishi xulosasiga kelib prinsipni yangi bosqichini boshlab berganligi yoritib beriladi.

Tadqiqotchi tomonidan erk muxtoriyati prinsipining mohiyati, turli mamlakatlar qonunchiligida aks ettirilishining oʻziga xos jihatlari va erk muxtoriyati prinsipining rivojlanishi, yaʼni hozirgi kunga qadar shakllanishiga xissa qoʻshgan xalqaro hujjatlar sinchkovlik bilan oʻrganilib prinsipning rivojlanishidagi taʼsiri tahlil qilingan.

Tadqiqot doirasida erk muxtoriyati prinsipini talqin etishda ikki xil doktrinal yondashuv mavjudligi koʻrib chiqiladi. Birinchi yondashuv – taraflarning manfaatlaridan kelib chiqadigan yondashuv (Party sovereigntist perspective) boʻlib, uning tarafdorlari mustaqil shaxslar oʻzaro munosabatlarda qonun chiqaruvchi irodasi bilan teng maqomda boʻlishi kerak, deb hisoblaydilar. Ularning

fikricha, shartnoma taraflari o'z nizolarini hal etishda asosiy va mustaqil vakolatlarga ega bo'lishi lozim.

Ikkinchi yondashuv esa – davlat manfaatlaridan kelib chiqadigan yondashuv (State sovereigntist perspective) bo'lib, bu nazariya vakillari erk muxtoriyati prinsipining mavjudligini inkor etmasdan, biroq uni davlat irodasi bilan teng qo'ymaydilar. Ushbu nuqtai nazarga ko'ra, taraflarning erkinligi faqat milliy qonunchilik tomonidan belgilangan doirada amal qiladi va agar shartnomaviy kelishuv mamlakatning ommaviy tartib to'g'risidagi izoh yoki huquqning qat'iy normalarga zid bo'lsa, bunday erkinlik cheklanishi shart.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ham aynan ikkinchi yondashuv ustuvor hisoblanadi. Fuqarolik kodeksi mazkur prinsipni ikki turdagi normalar orqali izohlaydi: bir tomondan, taraflarning kelishuvi asosida qo'llaniladigan dispozitiv normalar, ikkinchi tomondan esa, taraflar kelishuvi bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin bo'lmagan imperativ normalar.

Tadqiqotchi tomonidan erk muxtoriyati prinsipi mohiyatini tashkil etuvchi taraflar tomonidan huquqni tanlay olish xususiyati muhokama qilinib xalqaro maydonda huquqni tanlashga oid ikki talabni tahlil qiladi:

Taraflarning huquqqa oid tanlovida taraflar va tanlangan huquq borasida mantiqiy bog'liqlik yoki aloqa bo'lishi talab etilmaydi. Taraflar irodalarini ishga solgan holda istalgan huquqni o'zlarining huquqiy munosabatlari uchun tanlash to'g'risida kelishishlari mumkin (mutlaq huquqlar beruvchi);

Taraflarning huquqqa oid tanlovi taraflar va tanlangan huquq borasida bog'liqlik yoki aloqa bo'lishi lozimligi to'g'risidagi talab (erk muxtoriyatini cheklovchi).

Tadqiqotchi tomonidan yuqorida keltirilgan talab muhokama qilinib fuqarolik huquq tizimi (civil law countries) ga amal qiluvchi mamlakatlarda, xususan Argentina Fuqarolik va tijorat kodeksining 2655-moddasida taraflar va ular tanlayotgan mamlakat huquqi o'rtasida asosli bog'liqlik bo'lishi talabi mavjud, Braziliya Fuqarolik va xalqaro xususiy huquq prinsiplari kodeksining 9-11-moddalarida taraflar va ular tanlayotgan mamlakat huquqi o'rtasida bog'liqlik bo'lishi talabi mavjud, Turkiya Xalqaro xususiy huquq kodeksining 24-moddasida ham taraflarning huquqqa oid tanlovida ular tanlayotgan mamlakat borasida bog'liqlik bo'lishi talabi qo'yiladi.

Shuningdek tadqiqotda Eron qonunchiligi alohida ajratib ko'rsatilib, ushbu mamlakat qonunchiligida taraflardan biri Eron fuqarosi bo'lganida yoki shartnoma majburiyatlari uchun hal qiluvchi ijro Eron hududida bajariladigan bo'lsa, taraflarning kelishuviga yo'l qo'yilmasligi yoki taraflarning huquq borasidagi kelishuvi mavjud bo'lsa, ushbu kelishuv sudlar tomonidan tan olinmasligi haqida qoida mavjudligi tahlil qilinadi. Xuddi shunga o'xshash qoidalar Braziliya qonunchiligida ham mavjudligi ko'rsatilib ushbu mamlakatlar erk muxtoriyatiga nisbatan "jiddiy" cheklovlar o'rnatganligi xulosasiga kelinadi.

Tadqiqotchi tomonidan taraflar va ularning tanlayotgan mamlakati huquqi borasidagi tanlovi o'rtasida bog'liqlik bo'lishi talabini ma'qullovchi bir qator olimlarning (S.C.Symeonides, J.Walker, P.Nygh, A.Mills, R.Michaels, A.Briggs, Y.Nishitani, H.M.Watt, J.Basedow) fikr va mulohazalari keltirilib, ularning fikr va

mulohazalari tahlil qilinib ular bilan munozaraga kirishgan. Xususan, huquqni tanlash borasida bog‘liqlik bo‘lishi talabi taraflar o‘rtasida erk muxtoriyati prinsipi huquqini va taraflarning huquqni tanlash erkinligini sui‘stemol qilishlarini oldini olishi va mamlakat ommaviy tartibi to‘g‘risidagi izohning taraflar tomonidan buzilishini oldini olish va “zaif” taraflarning huquqini himoya qilishda kuchli ta’sirga olib kelishi xulosasiga kelinadi.

Taraflar va ular tanlagan huquq borasidagi tanlov o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik talabi qo‘yilmagan mamlakatlar, Buyuk Britaniya hamda Kanada qonunlarida taraflar irodasidan kelib chiqqan holda istalgan mamlakat huquqini tanlashiga ruxsat etilgan, taraflar mamlakat ommaviy tartibiga zid bo‘lmagan istalgan mamlakat huquqini hattoki taraflar o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik bo‘lmasa ham tanlashi mumkinligiga ruxsat etilgan. Xuddi shunday qoidalar Fransiya va Germaniya qonunchiligida ham mavjud.

Tadqiqotchi tomonidan ushbu talabni qo‘llab quvvatlovchi bir qator olimlar (F.K.Juenger, G.Born, J.Klabbers, A.Bonomi, M.Wilderspin) mulohazalari o‘rganilib ular bilan munozaraga kirishgan. Shuningdek, taraflar va ularning huquq borasidagi kelishuvida hech qanday bog‘liqlik bo‘lishi talabi o‘rnatilmagan Rim I Qoidalari (3-modda) va Xalqaro Tijoriy Shartnomalarda Huquqni Tanlash Yuzasidan Gaaga konvensiyasi (2-modda)lari (ushbu qoidalar O‘zbekiston uchun amal qilmaydi) ham o‘rganilib tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan huquqni tanlash borasidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligi ham muhokama qilinib O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining 1189-moddasida taraflar shartnomaviy munosabatlari uchun istalgan xorijiy mamlakat huquqini tanlashi mumkinligi va qonunchilikda huquqni tanlashda tanlanayotgan mamlakat qonunchiligi borasida bog‘liqlik bo‘lishi talabi mavjud emasligi qayd etiladi.

“Erk muxtoriyati” institutining asosiy mazmuni “huquqni tanlash” tushunchasi orqali yoritilishi muhokama qilinib, taraflar mamlakat qonunlari, xalqaro konvensiyalar va shartnomalar, e’tirof etilgan xalqaro taomillar (odat huquqi) ular tomonidan tanlanishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Xususan, e’tirof etilgan xalqaro taomillarga to‘xtalib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 6-moddasi Tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo‘llaniladigan, qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi, biron-bir hujjatda yozilganligi yoki yozilmaganligidan qat’i nazar, ish muomalasi odati deb hisoblanadi. Fuqarolik qonun hujjatlarida tegishli normalar bo‘lmagan taqdirda, bu munosabatlarni tartibga solishda odat va an’analar qo‘llanilishi keltirib o‘tilganligi hamda 1158-moddasi chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qo‘llanilishi lozim bo‘lgan huquq e’tirof etilgan xalqaro taomillar asosida belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni iqtisodiy sudlar tomonidan ko‘rishda qonunchilik hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi Qarorining 51-bandida iqtisodiy sud nizoni hal qilishda, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo‘lmagan va taraflar shartnomada to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatgan hollarda xalqaro ish odatlarini, shuningdek, Xalqaro savdo terminlarini sharhlash Qoidalari (Inkoterm) va Xalqaro tijorat shartnomalari Prinsiplari (UNIDRUA)

qo'llashi mumkinligini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, taraflarning munosabatlariga e'tirof etilgan xalqaro taomillarni qo'llanilishi mumkinligini Yaponiya, Bolgariya mamlakatlari qonunchiligidan ham misollar keltiradi.

Shuningdek, erk muxtoriyati prinsipining cheklovchi xususiyatlari o'rganilib erk muxtoriyati prinsipi mamlakatning ommaviy tartib to'g'risidagi izohiga hamda huquqning qat'iy normalariga zid kelganida, cheklanishi qayd etiladi. Erk muxtoriyati prinsipining cheklovchi xususiyatlari prinsipga eng ohirgi nuqta ekanligi xuddi shu nuqtadan taraflarning erk muxtoriyati tugashi xulosasiga kelinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi *“Erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipining shartnomaviy munosabatlardagi ifodasi tahlili”* deb nomlanib, unda taraflarning kelishuv asosida huquqni tanlashi, taraflarning huquq borasidagi ochiq kelishuvi mavjud bo'lmaganida, huquqni aniqlash tamoyillari, “eng uzviy aloqa” tamoyili hamda “maqbul huquq” tamoyili, taraflarning arbitraj kelishuvlarida erk muxtoriyati, xalqaro tijorat arbitrajida arbitrajga taalluqlilik, xalqaro xususiy huquqda erk muxtoriyati prinsipini qo'llashda xorijiy mamlakatlari tajribasi kabi masalalar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi erk muxtoriyati prinsipining asosini taraflarning huquqni mustaqil tarzda tanlay olishi va taraflarning huquqni tanlashdagi irodasi esa ularning kelishuvlarida aks etadi deya baholaydi. Tadqiqotchi tomonidan taraflarning erk muxtoriyati taraflar tomonidan huquqni tanlash borasidagi kelishuvga erishilishida yuzaga chiqadi deb hisoblaydi. Bunda dissertant bir qator olimlar (Symeon C. Symeonides, J. Kropholler, A. Briggs, J. Basedow) lar bilan munozaraga kirishib taraflarning huquq borasidagi irodasi ularning kelishuvlarida ifodalanishi va taraflarning kelishuvi ularning erk muxtoriyati prinsipini yuzaga chiqarish asosi bo'lib xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Tadqiqotchi tomonidan taraflarning huquqni tanlash borasidagi kelishuvida taraflarning huquq tanlovi yuzasidan tahlil o'tkazilib huquqni tanlash taraflar tomonidan ochiq oshkora tarzda tanlanishi mumkinligi yoki taraflar huquqqa ishora qilishlari mumkinligi borasida muhokama yuritadi.

Tadqiqotchi tomonidan taraflarning huquq borasidagi kelishuvi aniq, oshkora ifodalanishi to'g'risidagi bir qator olimlarning, xususan Dicey, Morris–Collins o'zlarining xalqaro xususiy huquq kodeksi kitobida taraflarning huquq borasidagi kelishuvi ochiq va oshkora ifodalanishi g'oyasi muhokama qilingan. Shuningdek, S.C.Symeonides, J.Kropholler, F.K.Juenger, P.Nyghning taraflarning huquq borasidagi kelishuvi ochiq ifoda qilinishi borasidagi mulohazalari tahlil qilingan.

Taraflarning huquq borasidagi kelishuvi mavjud bo'lmaganida, ularning munosabatlari uchun qo'llaniladigan huquq shartnomaning mazmuni uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ijro bajariladigan mamlakat huquqi bilan, shuningdek bunday ijroni aniqlashning imkoniyati bo'lmaganida esa shartnoma eng uzviy bog'langan mamlakat huquqi bilan aniqlanishi qayd etilgan. “Eng uzviy aloqa” tamoyili hamda “maqbul huquq” ni aniqlash tamoyili qiyoslanib “eng uzviy aloqa” tamoyili obyektiv faktlarni hisobga olgan holda aniqlanishi, “maqbul huquq” esa taraflarning “yashirin xohishi”ni aniqlashga yo'naltirilishi ko'rsatilgan.

Tadqiqotchi tomonidan taraflarning kelishuvida ko'rsatilgan huquqidan boshqa huquqqa murojaat etishiga ruxsat etadigan kelishuvlar (non-exclusive agreements) va taraflarning kelishuvida ko'rsatilgan huquqidan boshqa huquqqa murojaat etishiga yo'l qo'ymaydigan kelishuvlar (exclusive agreements).

Eksklyuziv kelishuvlar taraflarning huquq borasidagi kelishuvini qat'iy belgilaydi va ular o'rtasida nizolar vujudga kelganida, taraflarning kelishuvdagi boshqa huquqqa murojaat qilishlariga yo'l qo'ymasligi bilan ajralib turishi va eksklyuziv bo'lmagan kelishuvlar esa taraflarga ularning huquq borasidagi kelishuvi mavjud bo'lsa ham, ularning kelishuvdan boshqa huquqqa murojaat qilishiga imkon berishi, taraflarga "boshqa" tanlov qoldirishi bilan ajralib turish xususiyatiga egaligi xulosasiga kelinadi.

Tadqiqotchi erk muxtoriyati prinsiplarining asosini taraflarning huquqni mustaqil tarzda tanlay olishi va taraflarning huquqni tanlashdagi irodasi esa ularning kelishuvlarida aks etadi deya baholaydi. Tadqiqotchi taraflarning erk muxtoriyati taraflar tomonidan huquqni tanlash borasidagi kelishuvga erishilishida yuzaga chiqadi deb hisoblaydi. Bunda dissertant bir qator olimlar (S.C.Symeonides, J.Kropholler, A.Briggs, J.Basedow) lar bilan munozaraga kirishib taraflarning huquq borasidagi irodasi ularning kelishuvlarida ifodalanishi va taraflarning kelishuvi ularning erk muxtoriyati prinsipini yuzaga chiqarish asosi bo'lib xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Tadqiqotchi tomonidan taraflarning kelishuvida ularning huquq borasidagi tanlovi ochiq (express choice of law) ifoda etilishi yoki ularning huquq borasidagi tanlovi "yashirin" (tacit choice of law) bo'lishi mumkinligi borasida muhokama yuritiladi. Taraflarning "yashirin" (tacit choice of law) tanlovi shartnomaning butun xususiyatidan va shartlaridan ma'lum bo'lib turishi mumkinligi tahlil qilinadi.

Tadqiqotchi tomonidan taraflarning huquq borasidagi kelishuvi aniq, oshkora ifodalanishi to'g'risidagi bir qator olimlarning, xususan Dicey, Morris & Collins o'zlarining "Xalqaro xususiy huquq kodeksi" kitobida taraflarning huquq borasidagi kelishuvi ochiq va oshkora ifodalanishi g'oyasi muhokama qilingan. Shuningdek, S.C.Symeonides, J.Kropholler, F.K.Juenger, P.Nyghning taraflarning huquq borasidagi kelishuvi ochiq ifoda qilinishi borasidagi mulohazalari tahlil qilingan.

Taraflarning huquq borasidagi kelishuvi mavjud bo'lmaganida, ularning munosabatlari uchun qo'llaniladigan huquq shartnomaning mazmuni uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ijro bajariladigan mamlakat huquqi bilan, shuningdek bunday ijroni aniqlashning imkoniyati bo'lmaganida esa shartnoma eng uzviy bog'langan mamlakat huquqi bilan aniqlanishi qayd etilgan. "Eng uzviy aloqa" tamoyili hamda "maqbul huquq" ni aniqlash tamoyili qiyoslanib "eng uzviy aloqa" tamoyili obyektiv faktlarni hisobga olgan holda aniqlanishi, "maqbul huquq" esa taraflarning "yashirin xohishi"ni aniqlashga yo'naltirilishi "Assunzione" keysi bilan ko'rsatib berilgan.

Chet el huquqi normalariga huquqiy baho berish hamda chet el huquqi normalarining mazmunini aniqlashda mazkur normalarning tegishli xorijiy davlatda

